

O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN SAVDO ALOQALARINING RIVOJLANISHI

Sarikulov Mirkomil Olimovich

Ilmiy rahbar: ADPI o'qituvchisi

Orifjonov Izzatillo Ilhomjon o'g'li

O'zMU 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada 2000-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davr mobaynida O'zbekiston va Markaziy Osiyodagi davlatlar o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi o'rganildi. Tahlil jarayonida O'zbekistonning har bir mintaqaviy mamlakat bilan savdo munosabatlarining umumiy tashqi savdo hajmiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonning Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Turkmaniston bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini kengaytirish istiqbolli yo'nalishlardan ekanini ko'rsatdi. Shu asosda ushbu mamlakatlar bilan savdo hajmini ko'paytirishga qaratilgan aniq va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, O'zbekiston, eksport, import, savdo hajmi, tashqi savdo aylanmasi, kooperatsiya.

АННОТАЦИЯ

В данном исследовании изучались внешнеэкономические торговые отношения между Узбекистаном и странами Центральной Азии за период с 2000 по 2024 год. В процессе анализа была проведена оценка влияния торговых отношений Узбекистана с каждой страной региона на общий объём внешней торговли страны. Результаты исследования показали, что расширение торгово-экономических связей с Казахстаном, Кыргызстаном и Туркменистаном представляет собой перспективное направление. На этой основе были разработаны конкретные и практические предложения, направленные на увеличение объёма торговли с данными государствами.

Ключевые слова: Центральная Азия, Узбекистан, экспорт, импорт, объём торговли, внешняя торговля, кооперация.

ANNOTATION

This study examines the foreign trade turnover between Uzbekistan and the Central Asian countries over the period from 2000 to 2024. The analysis assessed the impact of Uzbekistan's trade relations with each regional country on the nation's overall foreign trade volume. The results of the study indicate that expanding trade and economic ties with Kazakhstan, Kyrgyzstan, and Turkmenistan represents a promising direction. Based on these findings, concrete and practical proposals have been developed to increase trade volumes with these countries.

Keywords: Central Asia, Uzbekistan, export, import, trade volume, foreign trade turnover, cooperation.

Kirish

Dunyoda hozirda xalqaro maydonda ro'y berayotgan tarixiy voqealar va jarayonlar o'zining o'ta murakkabligi va keng ko'lamliligi bilan ajralib turmoqda. Globallashuv sharoitida mavjud bo'lgan har qanday siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar Markaziy Osiyo mamlakatlari taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon bozorlarida vaziyat murakkablashib bormoqda, mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar, tabiiyki, tubdan o'zgarmoqda. Jahonda sodir bo'lgan tub o'zgarishlar Markaziy Osiyo mintaqasining o'rni va roli oshishiga olib keldi. Ma'lumki, O'zbekistonning milliy manfaatlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatimiz tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishi sanaladi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalari o'ziga xos tarixiy va strategik ahamiyatga ega bo'lib, so'nggi yillarda bu aloqalar yangi bosqichga ko'tarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda bo'lib o'tgan prezidentlik saylovi yuzasidan chiqqan ilk chiqishlaridayoq qo'shni mamlakatlar bilan aloqalarni barqarorlashtirish haqida fikrlarni berib o'tgan. Shundan so'ng, 2016-yildan keyin O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosatida amalga oshirilgan islohotlar va tashqi savdo aloqalarini liberalizatsiya qilish, Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgiladi. Ushbu davrda O'zbekistonning barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro savdo aloqalari, eksport va import hajmlari ortdi, iqtisodiy hamkorlik yangi imkoniyatlar va istiqbollarni yuzaga keltirdi.

Mintaqaviy savdo va iqtisodiy integratsiya O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim qismiga aylandi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro iqtisodiy aloqalari nafaqat savdo hajmining oshishiga, balki sanoat, transport, energetika, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda ham ko'plab yangi imkoniyatlarni yaratishga yordam bermoqda. Shuningdek, O'zbekistonning boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan qo'shma loyihalar, sarmoyalar va strategik tashabbuslari iqtisodiy aloqalarning yanada chuqurlashishiga turtki bo'lmoqda.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy hamkorligini kengaytirishda transport va logistika infratuzilmasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, "Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston" transport koridori mamlakatning janubiy va sharqiy savdo yo'llariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirib, uning mintaqaviy va global savdo tizimidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu koridor orqali O'zbekiston dengiz portlariga yo'l ochib, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, savdo hajmini oshirish va yangi bozorlarni zabt etishga qaratilgan yirik loyihalar mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani jadallashtirishga kuchli turtki bermoqda.[1]

Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy aloqalari savdo, kooperatsiya sanoati, energetika resurslari, qishloq xo'jaligi kabi qator sohalarda rivojlanib bormoqda. Mintaqadagi savdo, sarmoyaviy va kooperativ loyihalar O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi tufayli mustahkamlanmoqda. Markaziy Osiyo davlatlarining etnik tarkibi, qulay geografik joylashuvi va iqtisodiy tizimlari o'zaro savdo istiqbollari yanada oshirmoqda. Shunga qaramay, O'zbekiston va Turkmaniston Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lmaganligi, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston a'zo bo'lganligi bilan savdo aloqalari murakkablashmoqda.

O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar bu borada ham mintaqa barqarorligi, ham har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Savdo tarmoqlarini kengaytirish, energiya resurslarini samarali taqsimlash va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga ana shu hamkorlik yordam bermoqda. Markaziy Osiyoda iqtisodiy aloqalar va o'zaro savdoni rivojlantirish O'zbekiston tashqi savdo siyosatining eng muhim maqsadlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqolada O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, ularning savdo hajmi, salohiyati va istiqbolli kelajaglari ko'rib chiqiladi. Maqsadimiz Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada chuqurlashtirish, hamkorlikning yangi yo'nalishlarini aniqlash va O'zbekistonning iqtisodiy integratsiyalashuvini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyot tahlili

Ko'pgina akademiklar ham mahalliy, ham xalqaro miqyosda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni ko'rib chiqdilar. Liu Szunxia tadqiqoti Markaziy Osiyodagi energiya diplomatiyasi muammosiga qaratilgan. Energetika xavfsizligini ta'minlash, tashqi energiya bozorlariga chiqish va xorijiy investitsiyalar orqali resurslarni maqbul taqsimlash maqsadida tadqiqot turli yondashuvlarni o'rganadi. Tarix fanlari doktori Mirzayev G'ulom Rizoqulovich o'tgazgan tadqiqotlarda O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalari keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda mamlakatlarda olib borilayotgan islohotlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari chuqur o'rganiladi.

Xitoylik olimlar tomonidan taqdim etilgan bu xulosalar boshqa tadqiqotchilar ishlarida ham tasdiqlangan. Mintaqa mamlakatlarining hamkorligi faqat energetika sohasiga emas, balki savdo, iqtisod, tranzit, bojxona va chegara soliqlari kabi boshqa muhim yo'nalishlarga ham taalluqlidir. XXI asrda ushbu masalalar Markaziy Osiyo davlatlari oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

G'.R.Mirzayev ham Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zaro aloqalari haqida ma'lumotlar berib o'tgan. Tarix fanlari doktori G'.R.Mirzayev O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorligi tarixi to'g'risidagi ilmiy ishida O'zbekistonning Markaziy Osiyo bilan savdo-sotiq va investitsiyalardagi, transport va energetika

sohasidagi aloqalari to'g'risida ma'lumotlarni taqdim qilgan. Shu ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo aylanmasi yildan-yilga oshib bormoqda. 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda Markaziy Osiyo davlatlari ishtirokida 15801 ta qo'shma korxona faoliyat yuritgan, shundan: Qozog'iston bilan – 1258 ta, Qirg'iziston bilan – 320 ta, Tojikiston bilan – 305 ta, Turkmaniston bilan – 181 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar mintaqa iqtisodiyotining o'zaro bog'liqligi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Markaziy Osiyo mintaqasiga bo'lgan xalqaro qiziqish tobora ortib bormoqda. Turli mamlakatlar va xalqaro siyosiy-iqtisodiy kuchlar bu hududda o'z manfaatlarini ilgari surishga intilmoqda. Biroq, ularning manfaatlari har doim ham Markaziy Osiyo mamlakatlari manfaatlariga mos kelavermaydi. Shuning uchun ham Markaziy Osiyo davlatlari avvalo o'z manfaatlarini aniq belgilab olib, ushbu manfaatlarga erishish yo'lida qanday ichki imkoniyatlarni birlashtirishlari lozimligini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot natijalarini hisoblash 1-jadval ma'lumotlariga muvofiq amalga oshiriladi. Unga ko'ra, O'zbekistonning boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tovar aylanmasining O'zbekiston umumiy tovar aylanmasiga ta'siri 2000-2024-yillar davomidagi ma'lumotlar tahlili yordamida o'rganiladi. Ushbu tahlil natijalari asosida, Markaziy Osiyo mamlakatlarining qaysi biri bilan savdo aloqalarining rivojlanishi O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatsa, o'sha davlat bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot yuzasidan O'zbekistonning boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan eksport va import hajmi ham ko'rsatilgan. Ushbu ma'lumotlarni tahlil qilishda 1- va 2-chizmada berilgan ma'lumotlardan foydalanilgan. Chizmalarni yaratishda O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi Ochiq Ma'lumotlarida taqdim etilgan mamlakatlararo statistik jadvaldan va CAAN nashri manbalarida foydalanilgan qiyosiy tahlil usulidan foydalanilgan. Ya'ni, O'zbekistonning boshqa Markaziy Osiyo davlatlari bilan eksport va import hajmi avvalgi yillarga nisbatan qiyosiy tahlil qilinadi.

Tahlil va Natijalar

1-jadval

**O'zbekistonning Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston
bilan 2015-2023-yillardagi savdo aylanmasi hajmi
(million. AQSH dollarida)[4].**

Muallif ishlanmasi. Manba: O'zbekiston Davlat Statistika Qo'mitasi

Yillar	O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi	O'zbekiston-Qozog'iston	O'zbekiston-Qirg'iziston	O'zbekiston-Tojikiston	O'zbekiston-Turkmaniston
2015	24924	2697	136	167	320
2016	24232	1899	167	197	209
2017	26566	2056	254	238	178
2018	33429	2920	403	391	303
2019	41751	3335	820	481	554
2020	36256	3006	907	493	538
2021	42170	3921	955	606	902
2022	50500	4651	1263	677	929
2023	62567	4399	968	761	1096
2024	65934	4278	846	702	1148

ma'lumotlari. <https://siat.stat.uz/reports-filed/2364/table-data>

Birinchi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro savdo aloqalari so'nggi 10 yil mobaynida jadal rivojlangan. O'zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasi 2015-yilda 24924 million dollar bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 65934 million dollarga yetgan. Bu 10 yil ichida salkam 3 baravar o'sish demakdir. Ayniqsa, 2017-yildan keyin tashqi savdo aylanmasi hajmining sezilarli darajada oshgani kuzatiladi.

O'zbekistonning Qozog'iston bilan savdo hajmi 2015-yilda 2697 million dollar bo'lsa, 2024-yilga kelib 4278 million dollarga yetgan. Bu ko'rsatkich 1.5 barobarga oshgan bo'lib, ayniqsa, 2017-yildan keyin sezilarli o'sish kuzatilgan. Qirg'iziston bilan savdo hajmi 2015-yilda 136 million dollar bo'lib, 2023-yilda 968,2 million dollarni tashkil qilgan. 2024-yilda esa 846 million dollarni tashkil etgan. O'sish 6 barobardan ortiq bo'lib, 2017-2019-yillarda eng katta o'sish kuzatilgan. Tojikiston bilan savdo hajmi 2015-yilda 167 million dollar bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 702 million dollarga yetgan. 2016-yildan keyin sezilarli o'sish kuzatilgan bo'lib, 2019-yilda 480,5 million dollarga yetgan.

Turkmaniston bilan savdo hajmi 2015-yilda 320 million dollar bo'lgan savdo hajmi 2024-yilda 1148 million dollarga yetgan. Eng katta o'sish 2017-2018-yillarda va keyingi yillarda kuzatilgan.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdosi 2015-yildan buyon barqaror o'sishda bo'lib, ayniqsa 2017-yildan keyin tezlashgan. Qozog'iston eng yirik savdo hamkorlaridan biri bo'lib, 2024-yilda 4,3 milliard dollarlik savdo amalga oshirilgan. Qirg'iziston va Tojikiston bilan savdo hajmi nisbatan kam bo'lsa ham o'sishda davom etmoqda. Turkmaniston bilan savdo hajmi 2024-yilda 1,1 milliard dollardan oshib, sezilarli darajada kengaygan. Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonning mintaqadagi iqtisodiy integratsiyasi yildan yilga ortib borayotganini yaqqol ko'rsatib turibdi.




Muallif ishlanmasi. Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. Ochiq ma'lumotlar. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_1105.pdf

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan umumiy savdo aylanmasining ko'p qismini eksport mahsulotlari tashkil qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston iqtisodiyoti tobora rivojlanib bormoqda va bunda O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan amalga oshirgan iqtisodiy aloqalari katta ahamiyatga ega.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlariga qilgan eksport hajmi yillar davomida turlicha o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Qozog'iston O'zbekistonning eng yirik savdo hamkori bo'lib, 2015-yilda eng yuqori cho'qqiga yetgan. Biroq, 2015-yildan so'ng biroz pasayish kuzatilgan, keyinchalik esa asta-sekin tiklana boshlagan va 2020-yildan boshlab barqaror o'sishda davom etgan. Qirg'izistonga eksport 2015-2017-yillarda unchalik sezilarli bo'lmagan bo'lsa-da, 2018-yildan boshlab keskin o'sish kuzatilgan va 2022-yilda maksimal darajaga yetgan, biroq 2024-yilda sezilarli pasayish qayd etilgan. Tojikiston bilan savdo hajmi esa yillar davomida sekin, lekin barqaror o'sish sur'atida davom etgan. Turkmaniston bilan eksport hajmi nisbatan past bo'lib, butun tahlil qilingan davr mobaynida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagan. Umuman olganda, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aloqalari 2015-2016-yillardagi qisqa muddatli pasayishdan keyin o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, ayniqsa Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston yo'nalishlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan (1-chizma).

2-chizma. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlariga qilingan import hajmi (million AQSH dollarida)[5]



Muallif ishlanmasi. Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi.
Ochiq ma'lumotlar. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_2358.pdf

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlaridan amalga oshirgan import hajmi yillar davomida turli bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, 2-chizmadan ko'rinib turibdiki, ushbu jarayonda asosiy yetakchi hamkor mamlakat Qozog'iston hisoblanadi. Import hajmi 2015-2024-yillarda nisbatan barqaror darajada bo'lgan, ba'zi yillarda oz miqdorda pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, umumiy tendensiya o'zgarmagan. Biroq, 2017-yildan boshlab sezilarli o'sish kuzatilib, ayniqsa 2019-yildan so'ng import hajmi keskin ortgan va 2022-yilda eng yuqori nuqtaga yetgan. 2023-2024-yillarda biroz pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, umumiy ko'rsatkich hali ham yuqori darajada qolmoqda.

Turkmanistondan amalga oshirilgan import dastlabki holatga nisbatan sezilarli o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, 2020-yildan so'ng import hajmi barqaror oshib borgan va 2024-yilda maksimal ko'rsatkichlardan biriga yetgan (1 mlrd. dollardan ortiq). Bu esa O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi savdo aloqalarining mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

Qirg'iziston va Tojikistondan import hajmi 2018-yildan boshlab ushbu mamlakatlardan import hajmi asta-sekin oshib borayotganligi kuzatiladi. 2023-yilda ham bu o'sish tendensiyasi saqlanib qolgan bo'lib, bu O'zbekistonning ushbu davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini diversifikatsiya qilishga harakat qilayotganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan import aloqalarida asosiy yuklama Qozoqiston va Turkmaniston yo'nalishida bo'lib, ayniqsa so'nggi yillarda sezilarli o'sish qayd etilgan. Qirg'iziston va Tojikiston bilan import aloqalari nisbatan kam hajmga ega bo'lsa-da, so'nggi yillarda o'sish

tendensiyasi kuzatilmoqda (2-chizma). Ushbu tendensiyalar O'zbekistonning mintaqaviy iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan strategiyasining natijasi sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy integratsiyasi tobora kuchayib bormoqda. Biroq, bu integratsiya hali ham to'liq potensial darajasiga yetganicha yo'q. Buning sababi sifatida hali ham mavjud ayrim to'siq va muammolarni ko'rsatish mumkin. Xususan, O'zbekistonning JSTga a'zo emasligi, sanoat ishlab chiqarish bazasining zamonaviylashmagani va mintaqada o'zaro raqobatga olib keluvchi o'xshash iqtisodiy tuzilmalar kabi omillar savdo aloqalarini jadallashtirishga halaqit bermoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotini rivojlantirish uchun bir nechta takliflarni ko'rib chiqishimiz mumkin:

- O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining ortishidagi eng katta muammolardan biri dengiz savdo yo'llariga chiqishga imkon yo'qligidir. Ammo, qo'shni davlatlar hududlari orqali dengizga chiqish imkoniyati mavjud va shu yo'llarni rivojlantirish bo'yicha aloqalarni mustahkamlash zarur.

- O'zbekistonning Turkmaniston bilan savdo aloqalarini rivojlantirish istiqboli yuqori baholanadi. O'zbekiston Turkmaniston bozoriga meva va sabzavotlardan tashqari, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak va trikataj mahsulotlari, o'g'itlar va boshqa kimyoviy mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatiga ega. Mineral yoqilg'ilar, moy va distillatlar, plastmassa, shisha va shisha idishlar, neft tarkibidan olinadigan kimyoviy mahsulotlar importini oshirish esa O'zbekiston iqtisodiyoti uchun foydali bo'lishi mumkin. Sababi, Turkmanistonda kimyo sanoatiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar natijasida ushbu soha rivojlanish tendensiyasini namoyon etmoqda. Va Turkmaniston orqali Kaspiy dengiziga chiqish imkoniyati mavjud va shu imkoniyatdan foydalanishni ko'rib chiqib, amalga oshirish savdo aylanmasini yaxshilashga xizmat qiladi.

- Markaziy Osiyo mamlakatlarining eksport va import tovarlari tarkibi bir-biriga o'xshash. Shu sababli Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Masalan, tuz, oltingugurt, tuproq, shisha, gips, ohak va sement, plastmassa ishlab chiqarish jarayonida hamkorlikni yo'lga qo'yish mumkin. Bu kooperatsiyaga kirgan tarmoqlar va sohalarning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Khasanova, V. M. (2020). Development of transboundary trade and economic relations in Central Asia. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 1(4), 24–34.
<https://doi.org/10.47494/cajitm.v1i4.49>

2. Liu, J. (2019). Investments in the energy sector of Central Asia: Corruption risk and policy implications. *Energy Policy*, 133, 110912.
<https://doi.org/10.1016/j.enpol.2019.110912>
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. Ochiq ma'lumotlar. Muallif ishlanmasi
https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_1105.pdf
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. Ochiq ma'lumotlar. Muallif ishlanmasi. <https://siat.stat.uz/reports-filed/2364/table-data>
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. Ochiq ma'lumotlar. Muallif ishlanmasi
https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_2358.pdf
6. Sputnik Uzbekistan. (2024, February 5). O'zbekiston-Turkmaniston tovar ayirboshlash hajmi. <https://oz.sputniknews.uz/20240205/ozbekiston-turkmaniston-tovar-ayirboshlash-hajmi-42356554.html>
7. Stat.uz. (2023). Tashqi savdo press-relizi 2023-yil dekabr oyi.
<https://www.stat.uz/images/uploads/reliz-2023/tashqisavdopresreliz2023dekabr.uz.pdf>
8. CAA Network. (n.d.). O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston statistik ma'lumotlari.
<https://www.caa-network.org/archives/19734/ekonomika-i-covid-19-v-czentranoj-azii>